



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



BARQAROR HAYOT
xalqaro ijtimoiy-ma'rifat markazi

“ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI”

mavzusida xalqaro miqyosda ilmiy-amaliy anjuman materiallari



“Zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolari” mavzusida xalqaro miqyosda ilmiy-amaliy anjuman materiallari
660 b.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri E.Karimova tahriri ostida chop etildi.

Bosh muharrir:

Z. Raxmanov – Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti rektori v.v.b., iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Mas’ul muharrir:

G. Ibragimova – Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta’lim fakulteti dekani, pedagogika fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati:

N. Sh. Umarova – psixologiya fanlari doktori, professor.

V. M. Karimova – psixologiya fanlari doktori, professor.

Z. T. Nishanova – psixologiya fanlari doktori, professor.

D. S. Karshiyeva – psixologiya fanlari doktori, professor.

Nashrga tayyorlovchi:

R. Ashurov – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

To‘plamda keltirilgan maqolalarning mazmuni va keltirilgan statistik ma’lumotlarga mualliflar mas’ul.

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti 2025-yil 10-noyabrda bo‘lib o‘tgan ilmiy texnik kengashda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan

CONTENTS

1-Sho'ba. Zamonaviy psixologiyaning nazariy-metodologik asoslari va muammolari.....	15
YANGI O'ZBEKISTONDA PSIXOLOGIK XIZMAT: DAVLAT SIYOSATI, AMALIY MEXANIZMLARI VA BARQAROR RIVOJLANISH YO'LI Hilola Umarova	16
ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA SOG'LOM PSIXOLOGIK MUHITNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI..... Karimova E'zoxon Gapirjonovna	19
RAHBAR XODIMLARGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov	23
"DIGITAL TWIN" TEXNOLOGIYASI VA INNOVATSION BOSHQARUV PARADIGMASI Raxmanov Zafar Yashinovich	26
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОЙ ПСИХОЛОГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ..... Гайрат Бахрамович Шаумаров	28
MACHINE PSYCHOLOGY: BRIDGING HUMAN LEARNING PRINCIPLES AND ARTIFICIAL GENERAL INTELLIGENCE DEVELOPMENT Farkhod Alisherovich Alisherov, Nigora Ruzikulova Shukhratovna	31
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INKLYUZIVLIK SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHDA RAHBARLIK FAOLIYATINING PSIXOLOGIK VA TASHKILIY ASOSLARI Ibragimova Gulsanam Ne'matovna	39
TALABALARNING ILMIY INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI..... Abdullayeva Barno Sayfuddinovna	44
ONANING O'ZI HAQIDAGI TASAVVURLARINING FARZAND MUNOSABATIGA ALOQADORLIK XUSUSIYATLARI..... Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna	49
AVLODLAR KONTEKSTIDA MOLIYAVIY XULQ-ATVOR: PUL PSIXOLOGIYASINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TAHLILI Umarova Navbahor Shokirovna	53
EMOTIONAL BURNOUT AND STRESS AS PSYCHOLOGICAL RISKS OF A NOTARY'S PROFESSIONAL ACTIVITY Arystanbek Aiymszhan, Aitysheva Aigul Mukataevna	56
UYUSHMAGAN YOSHLARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MOSLASHGANLIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI..... Atabayeva Nargis Batirovna	59
MUAMMOLI PEDAGOGIK VAZIYATLARGA O'QITUVCHI QAROR QABUL QILISHINING DIFFERENSIAL XUSUSIYATLARI P.S.Ergashev	61
SPORT BOSHQARUVI SOHASIDAGI DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARIDA OILAVIY VA KASBIY TOLERANTLIK..... O.E. Hayitov	64
O'QUVCHILARDA KOGNITIV JARAYONLARINING RIVOJLANISHI INTELLEKT SHAKLLANISHINING MUHIM OMILI SIFATIDA..... Ashurov Ramzidin Ramazonovich	67

INKLYUZIV PSIXOLOGIYA KONSEPSIYASI: IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLARNING PSIXOLOGIK RIVOJLANISHINI O'RGANISHDA ZAMONAVIY METODOLOGIK YONDASHUVLAR.....	70
Abdullayeva Yulduz Muftillo qizi	
OILAVIY MUNOSABATLAR TRANSFORMATSIYASI JARAYONLARIDA YOSH OILA VAKILLARI XULQIDAGI AYRIM MUAMMOLAR.....	72
V.M. KARIMOVA	
UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMIDAGI PSIXOLOGIK XIZMATNI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI MASALALARI	75
Akramova Feruza Akmalovna	
TALABALARDA ALTRUIZM NAMOYON BO'LISHIGA SHAXS XUSUSIYATLARINING TA'SIRI	77
Kamolova Nilufar Davir qizi	
PEDAGOGLARDA KASBIY STRESS VA UNING OQIBATLARI	82
Karshiyeva Dilafuz Suyunovna	
SINERGETIK TAFAKKUR — ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONINING INNOVATSION YO'NALISHI.....	84
Masharipova Farog'at Matrasulovna	
OILADA MA'NAVIY, AXLOQIY VA MADANIY MALAKALARNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI	88
Mirabdullayeva Shoiraxon Abdulkayevna	
OLIY TA'LIM MUASSASASI IMIJINI BELGILOVCHI ASOSIY BIXEVIORISTIK KOMPONENTNING ILMIY-NAZARIY TAHLILI	91
Mirashirova Nargiza Anvarovna	
SPORTCHILAR PSIXOFIZIOLOGIK HOLATINI BAHOLASHDA TEPPING-TEST METODIKASI	94
S.U.Nazarov	
ILK O'SPIRINLARDA HAVAS KASB TANLASH MOTIVI SIFATIDA.....	98
Nishanova Zamira Taskayevna	
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПСИХОТЕРАПЕВТИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ.....	101
Останов Шухрат Шарифович	
TALABALAR O'ZINI O'ZI FAOLLASHTIRISHI MUAMMOSINING MAHALLIY MUHITDA TADQIQ ETILISHI.....	106
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li	
VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDA NAZORATSIZLIK VA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI MASALALARI	109
Qodirov Obid Safarovich, Raxmatov Faxriddin Umarovich	
PSIXOLOGLARNING PROFESSIONAL TAFAKKURI.....	114
Ra'no Ismaylova	
O'ZBEKISTON VA JAHON MAMLAKATLARIDAGI OILAVIY AJRALISHLARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARIDAGI O'ZIGA XOSLIKLARNING EMPIRIK TAHLILI	118
Ro'ziqulov Faxriddin Rasulovich	
SHAXS NAZARIYASIGA MAHALLIY PSIXOLOGLAR TOMONIDAN KOGNITIV YONDASHUV	121
Tursunov Lutfulla Sayfullayevich	
BO'LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY RIVOJLANISHIGA QARATILGAN ILMIY TADQIQOTLAR TAXLILI.....	123
Tuychiyeva Saodat Melikuziyevna	
TA'LIM MENEJMENTIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR - MUVAFFAQIYATLI BOSHQARUVNING ASOSIY OMILI SIFATIDA	126
Umarova Navbahor Shokirovna, Jalolova Nafisa O'ktam qizi	
TALABALARDA RUHIY SALOMATLIKNI MUSTAHKAMLASHDA STRESSGA BARDOSHLILIK VA EMOTSIONAL INTELLEKTNING ROLI.....	128
Xajiyeva Iroda Adambayevna	

ZAMONAVIY GLOBAL MUAMMOLARDA ALTRUIZMNING ROLI	131
Xatamova Ferangiz Ibodulloevna	
QUROLLI TO'QNASHUVLARDAN OLIB KELINGAN BOLALARNI PSIXOLOGIK REABILITATSIYA QILISH MUAMMOLARI	134
S.R.Yuldashev	
ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ МЫСЛИТЕЛЬНЫХ ОПЕРАЦИЙ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА	137
Алимова Гулчехра Кабелевна	
О'QUVCHILARDA MUVAFFAQIYAT MOTIVATSIYASINI KUCHAYTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	139
Karimov Sherzod Abdurasulovich	
HARBIY XIZMATCHILAR OILALARIDAGI INQIROZLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	142
Sh.S.Kurbanova	
AUDITORLIK QOBILIYATI RAHBAR KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGI KO'RSATKICHI SIFATIDA	145
Xolmurodova Dilnoza Xolmurodovna	
САМОРЕГУЛЯЦИЯ У СТУДЕНТОВ КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ФЕНОМЕН.....	149
Махмудова Д.А., Махманова К. Д.	
СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ.....	151
Султанова Амина Анваровна, Дjon Муминова Дильфуза	
ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ БЛАГОПОЛУЧИЕ СТУДЕНТОВ С РАЗНЫМ УРОВНЕМ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ	154
Тиллашайхова Хосият Азаматовна	
2-Sho'ba. Zamonaviy shaxs rivojlanishining ijtimoiy-psixologi muammolari	159
ВЛИЯНИЕ ИНТЕНСИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГАДЖЕТОВ НА ФОРМИРОВАНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ЗАЩИТ У ПОДРОСТКОВ	160
Е.Г.Алимова	
ZAMONAVIY SHAXS RIVOJLANISHIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING TA'SIRI	163
Abdinazarova Bibixonim Rashid qizi	
INKLYUZIV TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHILARNING PSIXOLOGIK MOSLASHUV JARAYONINI QO'LLAB-QUVVATLASH: SAMARALI PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR	166
Abdullayeva Yulduz Muftillo qizi, Giyazova Zuhro Sattorovna	
ZAMONAVIY BOSHQARUV TIZIMLARIDA QAROR QABUL QILISH SAMARADORLIGI	169
Umarova Navbahor Shokirovna, Artikov Samandar Arzikulovich	
IJTIMOY PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA OILA VA OILAVIY QADRIYATLARNING O'RGANILGANLIK HOLATI	172
Abibullaeva Perdegul Ongarbaevna	
OILAVIY JANJALLAR NATIJASIDA YUZAGA KELUVCHI STRESS VA DEPRESSIV HOLATLARNING PSIXODIAGNOSTIKASI.....	174
Boboyeva Feruza Azimjonovna	
ZAMONAVIY O'SMIR SHAXSINING EMOTSIONAL INTELLEKTI RIVOJLANISHIDA IJTIMOY OMILLARNING ROLI.....	178
Ergashev Dilshod Tirkash o'g'li	
PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF DIGITAL INFORMATION USE THAT CONTRIBUTE TO THE EROSION OF SOCIAL NORMS IN THE MINDS OF YOUNG PEOPLE	180
Ganiev Maksudjon Najimovich	
ZAMONAVIY SHAXS RIVOJLANISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI	184
Gulnafar Abdullayeva	

RUHIY SALOMATLIKNI SAQLASHDA PSIXOLOGIK OMILLARNING AHAMIYATI.....	187
Hasanova Dilshoda Avazbek qizi	
EMOTSIONAL INTELLEKT - ZAMONAVIY SHAXS RIVOJLANISHINING IJTIMOY – PSIXOLOGIK MUAMMOSI SIFATIDA.....	190
Ismailova Nilufar Baxadirovna	
OILALARDA INTERNETGA TOBELIKNING BUGUNGI KUNDAGI HOLATI.....	193
Kushakova Nargiza Islambayevna, Ergasheva Sarvinov Shavqiddin qizi	
AKADEMIK PROKRASTINATSIYANI O'RGANISH BO'YICHA XORIJIY OLIMLAR TAHLILI	196
Mardiyeva Shaxnoza Amirovna	
STEAM TA'LIM VOSITASIDA O'QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	199
Matkarimova Nilufar	
MAKTABGACHA YOSHDA BOLANING MUVAFFAQIYATLI IJTIMOYILASHUVI MEZONLARI	203
Norbosheva Maqsuda Achilovna	
DEVIANT XULQ-ATVORLI O'SMIR QIZLARDA HIMOYA MEXANIZMLARINING IJTIMOYILASHUVGA TA'SIRI	206
Parpiyeva Shaxnoza	
PSIXOLOGIYADA O'ZINI O'ZI FAOLLASHTIRISH FENOMENIGA NISBATAN ILMIY YONDASHUVLAR.....	209
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li, Istamburiyev Muhammadali Abdulazizovich	
VELOSIPED SPORT TURI BILAN SHUG'ULLANUVCHILARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	212
Raxmonova Go'zal Bobir qizi	
SOCIO-PSYCHOLOGICAL CONSEQUENCES OF CYBERBULLYING ON ADOLESCENTS' INTERPERSONAL COMMUNICATION	215
Salomov Shamsiddin Sabokhiddin ugli	
RUHIY SALOMATLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH ORQALI BO'LAJAK LOGOPEDLARNING INKLYUZIV FAOLIYATGA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI OSHIRISH	219
Sharifova Maxliyo Zarif qizi	
TALABALARDA TA'LIM JARAYONIGA MOSLASHISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	222
Ubaydullayev Nuriddin Toxir o'g'li	
PEDAGOGIK JAMOALARDA PROJECT MANAGEMENT METODLARINING JAMOAVIY MOTIVATSIYAGA TA'SIRI.....	225
Umarova Navbahor Shokirovna, Ashurov Muhammad Zokir o'g'li	
AYOLLARDA KASB VA OILA MUVOZANATINI TA'MINLASHNING PSIXOLOGIK OMILLARI	227
Zuxra Mansurxonova	
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ СПОСОБЫ ВЫЯВЛЕНИЯ КРИМИНАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ	230
Пардаева Умида Мухтар қизи	
PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE LIFE POSITION OF UNORGANIZED YOUTH.....	234
Atabayeva Nargis Batirovna, Alimjonova Durdona Yunusjon qizi	
YOSHLARNI OTA-ONALIK MAS'ULIYATIGA TAYYORLASH - PSIXOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOSI SIFATIDA.....	238
Bilolova Zamira Baxtiyarovna	
OTA-ONA VA FARZAND MUNOSABATLARINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY JIHATLARI.....	241
D.U.Abdullayeva, I.X.Panjiyeva	
SHAXS IJTIMOY MOSLASHUVIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLARNING O'ZIGA XOSLIGI	244
Dusboyev Asliddin Turgunovich	
PSYCHOLINGUISTIC FOUNDATIONS OF SOCIOLINGUISTIC COMPETENCE AND ITS STRUCTURAL COMPONENTS.....	247
G.A.Valiyeva	

YOSH OILALARNING MUSTAHKAMLIGIGA ZAMONAVIY AXBOROT VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING TA'SIRI.....	250
Kushakova Nargiza Islambaevna	
TALABALARDA IJTIMOY-PSIXOLOGIK KOMPETENTLIK SHAKLLANISHINING DINAMIK XUSUSIYATLARI.....	253
Nazarova Malohat Axmedovna	
SOCIO-PSYCHOLOGICAL CONSEQUENCES OF CYBERBULLYING ON ADOLESCENTS' INTERPERSONAL COMMUNICATION	255
Salomov Shamsiddin Sabokhiddin ugli	
OTA-ONA VA FARZAND MUNOSABATLARINI BARQARORLASHTIRISHDA AFILIATSIYA MOTIVINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	259
Samatova Sevara G'ayratovna	
GENDER STEREOTIPLARI - QABUL QILINGAN ME'YOR VA QOIDALARGA XULQ-ATVORINI MOSLASHTIRISH.....	263
Saribayeva Umida Sattarovna	
DINIY MUTAASSIBLIK, EKSTREMIZM VA TERRORCHILIKNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	266
Sobirov Jamoliddin, Nazarov A.S.	
O'QUVCHI YOSHLARNING O'ZARO MUNOSABATLARIDA TEAM BUILDING TA'SIRI VA AHAMIYATI.....	267
Turayev Nurmuhhammad Alibek	
O'SMIRLARDA DEVIANT XULQNING KONATIV ASPEKTLARI BO'YICHA PSIXODIAGNOSTIK TAHLIL (HUDUDIIY VA GENDER FARQLARI MISOLIDA)	269
Turayeva Gulchehra Urayimovna	
TALABALAR IJTIMOYIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK JIHATLARI	273
Umarov Saidnemat Burxanovich	
O'SMIRLIK DAVRIDA DEVIANT XULQ-ATVOR NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	275
Umarova Navbahor Shakirovna, Xalilova Sarvinoz Qodirali qizi	
TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARISHDA KOGNITIV MENEJMENT YANGI MODEL SIFATIDA	278
Umarova Navbahor Shokirovna, Sadinova Marjona Akmal qizi	
SPORTCHILAR OILASIDAGI SIBLINGLAR MUNOSABATLARINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	281
G.H.Usmonova 281	
YOSHLAR PSIXOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA QADRIYATLAR TIZIMI VA IJTIMOY-PSIXOLOGIK MEKANIZMLARNING O'ZARO TA'SIRI: NAZARIY ASOSLAR VA EMPIRIK TAHLIL.....	283
X.A. Bobanov	
KIBERIJTIMOYILASHUV IJTIMOYIY PSIXOLOGIK HODISA SIFATIDA.....	287
Yuldashev S.R., Muhiddinova M.N	
MILLIY VA DINIY URF-ODAT VA AN'ANALARDA AXLOQ NORMALARINING MUJASSAMLASHGANLIGI.....	289
D.Sh.Yuldashova, Miraliyeva Zulayxo Abdurauf qizi, Xidirova Gulhayo Muhiddin qizi	
РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ-ПСИХОЛОГОВ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ	292
Аскарова Гулрух, Ашурова Анастасия	
КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ КАК ФАКТОР ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО СТАНОВЛЕНИЯ ПЕДАГОГА-ПСИХОЛОГА.....	296
Аскарова Гулрух, Рахимова Робиябону	
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ОБРАЗА «Я» У ПОДРОСТКОВ.....	300
Махмудова Диларом Ахмадовна, Сафаев Музаффар Зафар угли	
СЕМЕЙНАЯ СИНЕРГИЯ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ “Я-КОНЦЕПЦИИ” В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ	303
Одилова Наира Гулямовна	

3-Sho'ba. Yosh va pedagogik psixologiya: ta'lim-tarbiya jarayonidagi muammolar	307
TA'LIM MUASSASALARIDA PSIXOLOGIK KONTRAKTNI MUSTAHKAMLASH UCHUN TASHKILIY-PSIXOLOGIK INTERVENSIYALAR	308
Umarova Navbahor Shokirovna, Bayzaqova Madina Ibragimovna	
TA'LIM OLIH JARAYONIDA STRESSGA BARQARORLIK NAMOYON BO'LISHINING YOSH PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	312
N.Z.Ismoilova, M.K.Ismoilova	
BOLALARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING PSIXOLOGIK TA'SIRI	315
Aliyeva Kamola Saidnegmatovna, Tulqunova Barnooy Behzodjon qizi	
PEDAGOGLARDA KASBIY STRESSNING NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI	317
Boymirzayeva Nafisaxon Baxodir qizi	
O'ZBEKISTONDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI	321
G.M.Qurbonova	
PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF DIGITAL INFORMATION USE THAT CONTRIBUTE TO THE EROSION OF SOCIAL NORMS IN THE MINDS OF YOUNG PEOPLE	324
Ganiev Maksudjon Najimovich	
TALABALARDA PROKRASTINATSIYA DARAJASINI KAMAYTIRISH VA OLDINI OLIHNING NAZARIY TAHLILI	328
Ismailov Sanjarbek Sherzod o'g'li	
O'SMIRLARDA DEVIANT XULQ SHAKLLANISHINING OTA-ONA MUNOSABATLARI BILAN BOG'LIQLIGI	331
Mo'minova Dilrabo Murodillayevna	
O'SMIRLIK DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI	334
N.Z.Ismoilova, S.S.Berdiyeva, H.T.Baxriddinova	
ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN O'SMIRLAR ORASIDA COPING STRATEGIYALARINING SHAKLLANISHIGA IJTIMOIIY QO'LLAB-QUVVATLASH OMILLARINING TA'SIRI	337
Nishanova Zamira Taskarayevna, Komilova Komila Inomjon qizi	
O'SMIRLARNI AGRESSIV XULQ-ATVOR FENOMENINI PSIXOLOGIK JIHATLARINI O'RGANISH	339
Norqulova Dildora Shavkat qizi	
OLIIY TALIM PEDAGOGLARDA FRUSTRATSION TOLERANTLIKNI NAMOYON BOLISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	342
Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li	
TALABALAR O'ZINI O'ZI FAOLLASHTIRISHI MUAMMOSINING MAHALLIIY MUHITDA TADQIQ ETILISHI	345
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li	
TALABALARDA TADQIQOTCHILIK QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	348
Saidakbarova Nigora	
O'SMIRLIK DAVRIDA DEVIANT XULQNING SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	351
Sattarova Shahnoza Qo'chqarovna, Erkinjonova Raximaxon Baxtiyor qizi	
TA'LIM TASHKILOTLARIDA "WELL-BEING MANAGEMENT" TIZIMINI JORII ETISH: IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK YONDASHUV DOIRASIDAGI TAHLIL	353
Umarova Navbahor Shokirovna, Muminov Temurbek Uralbaevich	
GLOBALLASHUV DAVRIDA O'SMIRLARNING HAYOTIDA PSIXOLOGIYANING AHAMIYATI	356
Xolmuratova Mahbuba Maxmudovna, Mannonov Hamid Xolmurod o'g'li, Isroilova Sevinch Sobirjon qizi	
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОПИНГ-СТРАТЕГИЙ ПЕДАГОГОВ В СТРЕССОВЫХ СИТУАЦИЯХ	359
Аскарова Гулрух Оринбасаровна, Халматова Мумтоза Зафаржон кизи	

ВЛИЯНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НА МЕЖЛИЧНОСТНЫЕ ОТНОШЕНИЯ.....	363
Лутфуллаева И.А.	
RIVOJLANGAN XORIYIY MAMLAKATLAR TA'LIM TIZIMIDA MAKTAB DIREKTORLARINING BOSHQARUV MADANIYATI.....	365
Abdulxayeva M.B.	
INNOVATSION TALIM TIZIMIDA TALABALARNI KREATIV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI.....	369
Masharipova Saida Rahimovna, Jiyarboeva Sadokat Shonazarovna	
FORMATION OF SOCIO-COMMUNICATIVE SKILLS IN STUDENTS THROUGH BILINGUISTICS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH.....	372
Najmiddinova Gulnoza Odilovna	
O'QITISH JARAYONIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI.....	376
Safarova Dilnoza Kuchkarovna, Kasimova Dildora Xusanovna	
ZAMONAVIY SHAXS RIVOJLANISHINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI	379
Saidakbarova Nigora Abduraxim qizi, Saydiraxmonova Durdona Abror qizi	
PEDAGOGIYALARDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI	382
Sh.D.Ablakulov	
PSYCHOLOGICAL BASES OF POSITIVE PSYCHOLOGY AND POSITIVITY IN PEDAGOGICAL ACTIVITY	385
Shakhnoza Sattarova Kochkarovna	
PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF PROFESSIONAL ADAPTATION	388
Shodiyeva Rayhon Saydullayevna	
YOSH VA PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA: TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI MUAMMOLAR.....	391
Tuqboyeva Dilshoda Zaynievna, Saliddinova Nilufar Lochin qizi	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM DASTURLARINI XALQARO AKKREDITATSIYADAN O'TKAZISH TAJRIBASI.....	393
Tursunov Tajimurad Mirsaidovich, Berdiqulov Ravshan Shavkatovich	
PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA PEDAGOGIKANING ILMIY VA AMALIY SOHASI SIFATIDA	396
Umarova Malika Xisabidinovna, Xolboboyeva M.A.	
TA'LIM MUASSASALARIDA LIDERLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI.....	399
Umarova Navbahor Shokirovna, Sobirova Shahlo Saminjonovna	
O'QUV MOTIVATSIYASI MUAMMOSI XORIY PSIXOLOGIYASIDA TADQIQOTLAR PREDMETI SIFATIDA.....	402
D.Sh.Yuldashova	
ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ НАУК.....	405
Алиева Камола Саиднегматовна	
ФОРМИРОВАНИЕ КОГНИТИВНОЙ АКТИВНОСТИ КАК ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ НАУЧНОГО ИНТЕЛЛЕКТА ПЕДАГОГА.....	408
Анварова Хуснора Давронбек кизи	
ЗНАЧЕНИЕ И РОЛЬ АРТ-ТЕРАПИИ В РАБОТЕ С ДЕТЬМИ	411
Асанова Гузаль Мухарамовна, Нуруллаев Адхамбек	
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОВЛАДАЮЩЕГО ПОВЕДЕНИЯ У МОЛОДЕЖИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ	414
Аскарлова Гулрух Оринбасаровна	
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФРУСТРАЦИОННОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ.....	418
Аскарлова Гулрух Оринбасаровна, Рустамова Мубина Эркин кизи	

УМЕНИЯ ОРИЕНТИРОВАТЬСЯ В ТРУДОВОМ ЗАДАНИИ У УМСТВЕННО ОТСТАЛЫХ УЧАЩИХСЯ МЛАДШИХ КЛАССОВ.....	422
Зохидова К.Х.	
РОЛЬ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ СОПРОВОЖДЕНИИ И ВОСПИТАНИИ ШКОЛЬНИКОВ	424
М.М.Агзамова, Карпенко А.А.	
КОГНИТИВНЫЕ И ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ МОТИВАЦИИ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА У МОЛОДЕЖИ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ (ПОКОЛЕНИЯ Z И ПОКОЛЕНИЯ ALPHA).....	427
Мухамеджанова Р.Р.	
4-Sho'ba. Amaliy psixologiya: psixologik xizmat muammolari va innovatsion yechimlari.....	430
PEDAGOGIK JAMOALARDA PROJECT MANAGEMENT METODLARINING JAMOAVIY MOTIVATSIYAGA TA'SIRI.....	431
Umarova Navbahor Shokirovna, Ashurov Muhammad Zokir o'g'li	
ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ПОНЯТИЯ «ОДАРЕ́ННОСТЬ».....	433
Байбаева Мухайе Худайбергеновна, Зайниддинова Хилола Абдилвахоб кизи	
GLOBALASHUV JARAYONIDA HUQUQBUZARLIKLAR PSIXOPROFILAKTIKASI MUAMMOLARI	436
Qodirov Obid Safarovich, Utaev Umid Saidaloyevich	
TURLI AVLOD VAKILLARIDA KASBIY MOTIVATSIYA VA KASB TANLASH MEKANIZMLARINING PSIXOLOGIK TAHLILI	439
Jabborov Xazrat Xusenovich, Kamola Xodjaeva	
STRESS HAQIDA UMUMIY PSIXOLOGIK TUSHUNCHA.....	442
Aksakalova Nilufar Oybekovna	
XOTIN-QIZLARDA OILAVIY ZO'RAVONLIKDAN KEYINGI STRESS HOLATLARINI OPTIMALLASHTIRISHNING IJTIMOY PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI.....	446
Alimova Umida Raxmatillayevna	
BOJXONA TIZIMI XODIMLARIDA STRESSGA BARQARORLIKNI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	449
Fayzullayeva Xurshida Erkin qizi	
KASBIY O'ZINI ANGLASH VA O'ZINI RIVOJLANTIRISH MOTIVLARI.....	452
G.Andakulova	
VIRTUAL MULOQOT VA RAQAMLI IJTIMOY MUHITDA YOSHLARNING DEVIANT XULQ-ATVORI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI	455
G'aniyev Maqsudjon Najim o'g'li, Nizomiddinova Feruza Faxriddin qizi, Bahriddinova Hulkaroy Tojiddinova	
RUHIY SALOMATLIKNI SAQLASHDA PSIXOLOGIK OMILLARNING AHAMIYATI.....	460
Hasanova Dilshoda Avazbek qizi	
IJTIMOY TARMOQLARNING SHAXS RIVOJLANISHIGA TA'SIRI.....	463
Ismoilova Dilso'z, Murodjonova Mavzuna Latifjon qizi, Tilapboyeva Rayxona Komiljon qizi	
TALABALARDAGI KOMMUNIKATIV VA IJTIMOY KOMPETENTLIK XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISH.....	466
Nazarova Malohat Axmedovna	
FORMATION OF COMMUNICATIVE SKILLS IN STUDENTS WITH HEARING IMPAIRMENTS.....	469
Shakhnoza Pulatova	
O'SMIR YOSHIDAGI O'QUVCHILAR SAMARALI MULOQATDA O'QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV SIFATLARNI NAMOYON BO'LISHI	472
Xalmuratova Dilaram Abdikarimovna, Saydazimova Ziyoda Baxtiyor qizi, Nurmuhamedova Mohidil Nodir qizi	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASRIDA TA'LIM JARAYONINI BOSHQARISH INNOVATSIYALARI.....	475
Mamanazarova Nargiza Komildjanovna, Mirzayeva Shaxida Abidinabiyevena	

O'SPIRINLARNING IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI.....	478
Salomov Shamsiddin Saboxiddin o'g'li, Yaxshiboyeva Ruxshona Husniddin qizi, Alimjonova Durdona Yunusjon qizi	
MOSLASHUVCHAN XULQ-ATVOR XUSUSIYATI, IFODALANISH MUAMMOLARI.....	482
Sh.B.Qurbanova	
KONCHILIK VA QAZIB OLISH SANOATI SOHASIDA PSIXOLOGIK SALOMATLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMI	487
Sh.U. Turobova	
SHAXS VAQTINI IDROK ETISH VA BOSHQARISHNING TO'RT USULI	491
Solayev Og'abek Ilhombek o'g'li	
AYBDORLIK HISSINING NAMOYON BO'LISHI: XORIY OLIMLARI TADQIQOTLARIDA YORITILISH	494
Sultanova Saida Muhiddin qizi	
EDUKOLOGIYA VA KOMMUNIKATSIYANING KESISHGAN NUQTALARI: METODOLOGIK QARASHLAR TAHLILI.....	496
To'g'onboyeva Qizlarxon Ikromjon qizi, Ruzmetova Xilola Abdusharipovna	
ZAMONAVIY SHAXS RIVOJLANISHINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLAR.....	501
Tuqboeva Dilshoda Zaynievna, Mardonova Mardona Farhodovna	
CORRECTION OF ANXIETY IN CHILDREN.....	503
Umarova M.Kh., Sabirova N. I.	
PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING MAQSADI VA SHAXS RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	505
Umarova Malika Xisabidinovna, Abdurasulova Ra'no Saloxiddinovna	
VIRTUAL MUZEYLAR VA ULARNING TARBIVAVIY IMKONIYATLARI	508
Voxidova N.X., Yusupova M. U.	
O'SMIR YOSHIDAGI O'QUVCHILAR SAMARALI MULOQATIDA O'QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV SIFATLARI NAMOYON BO'LISHI.....	510
Xalmuratova Dilaram Abdikarimovna, Saydazimova Ziyoda Baxtiyor qizi, Nurmuhammedova Mohidil Nodir qizi	
O'SMIRLARNING PUL HAQIDAGI IJTIMOYIY TASAVVURLARI SHAKLLANISHIDA ETNOPSIXOLOGIK QADRIYATLAR VA MADANIY IDENTIFIKATSIYA OMILLARINING O'ZARO TA'SIRI	512
Xolmuratova Mahbuba Maxmudovna	
INSON PSIXIKASI TASHQI MUHIT VA ICHKI HOLAT O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR NATIJASIDA SHAKLLANISHI	515
Xolmurotova Mahbuba Mahmudovna, Ergashova Shaxinabonu Boboqulovna, Safarova Lobar Alisherovna	
ОТКЛАДЫВАНИЕ ДЕЛ КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЯВЛЕНИЕ: МЕХАНИЗМЫ И ПРИЧИНЫ ПРОКРАСТИНАЦИИ	518
Асанова Гузаль Мухарамовна, Ганибекова Ситора	
ДЕВИАНТНОЕ ПОВЕДЕНИЕ У ПОДРОСТКОВ	521
Аскарова Гулрух Оринбасаровна, Шапранова Милана Павловна	
МОТИВАЦИОННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ОСУЖДЕННЫХ К ТРУДОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ОБУЧЕНИЮ В ПЕНИТЕНЦИАРНОЙ СИСТЕМЕ	525
М.А.Сайдуллаева	
5-Sho'ba. Shaxsning ruhiy salomatligi va salomatlik psixologiyasining dolzarb masalalari	529
O'SMIRLIK DAVRIDAGI BOLALARDA AGRESSIYANING NAMOYON BO'LISHI VA UNI BARTARAF ETISH USULLARI.....	530
Jalilova S.X., Aloyeva F., G'aybullaeva A.	
TA'LIM MUASSASALARIDA HR-MENEJMENT TIZIMINI JORIY ETISHNING SAMARADORLIGI.....	533
Umarova Navbahor Shokirovna, Bekmuratova Kamola Xasanovna	
BOLALARNI ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI.....	535
Abbosova Uzrobonu Erkin qizi	

AUTIZM SPEKTRI BUZILISHI BO'LGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA VIDEOMODELLASHTIRISHNING IJTIMOY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI.....	538
Atabayeva Dilrabo Ixtiyor qizi	
GLOBAL O'ZGARISHLAR FONIDA KASBIY STRESS.....	543
Bog'bekova Dilnoza Shonazarovna	
GIPERTONIYA BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA STRESSNI BOSHQARISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI	546
Eshchanova Nasiba Matnazarovna	
SHAXSNING RUHIY SALOMATLIGI VA SALOMATLIK PSIXOLOGIYASINING DOLZARB MASALALARI	549
Inogamova Shaxzoda Raximovna	
NEUROPROTECTIVE PROPERTIES OF PROPOFOL AND SEVOFLURAN: POSSIBILITIES OF PREVENTING THE DEVELOPMENT OF DYSFUNCTION IN COGNITIVE PROCESSES	553
Karimova G. Kh., Khodjimurodova M. Yu.	
YETUKLIK DAVRIDA INSULT TASHXISLI BEMORLAR BILAN PSIXOKORREKSION ISH OLIB BORISHNING DASTURIY ASOSLARI.....	556
L.U.Atajanova	
SHAXS RUHIY SALOMATLIGINING PSIXOLOGIK VA IJTIMOY DETERMINANTLARI.....	558
N.A.Saidakbarova, Karimova Gulnoza	
GIPERTONIYA KASALLIGIDA BEMORLARDA NARKOZDAN SO'NG XOTIRANI O'ZGARISHI.....	561
Karimova Gulchehra Xamidullayevna, Axmatova Diyora Donyor qizi, Ulug'babayeva Soliha G'ayratjon qizi	
ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN AYOLLAR BILAN PSIXOLOGIK MASLAHAT TASHKIL ETISH TAMOYILLARI.....	564
Nazarova Muharram Yunus qizi	
SHAXS RIVOJLANISHI VA SALOMATLIGINI ASRASHDA IJTIMOY TARMOQLARNING O'RNI.....	567
O.M. Zaripov	
BULLING VA ZO'RAVONLIK HOLATLARINING PSIXOLOGIK, IJTIMOY VA PEDAGOGIK OMILLARI	569
Qarshiyeva Dilafruz, Sattorova Mohinur Sherah qizi	
MAHALLIY NARKOZ PAYTIDA TAFAKKURNING YO'QOLMASLIGI.....	572
Karimova Gulchehra Xamidullayevna, Nizomova Munisa Amriddinova, Raximova Shaxnoza Ravshanovna	
SHAXSNING RUHIY SALOMATLIGI VA SALOMATLIK PSIXOLOGIYASINING DOLZARB MASALALARI	575
Pulatova Gulnoza Murodilovna, Umrzaqova Gulzoda Abdurahmon qizi	
NEVROTIK BEMORLARDA XISSIY O'ZGARISHLAR	578
Karimova Gulchehra Xamidullayevna, Ostonayeva Novbaxor Mamaraimovna, Inomova Odina Abdulvohid qizi	
COVID-19 PANDEMIYASINING INSON RUHIYATIGA TA'RISI.....	581
Qadirova Shahnoza Saidabdullayevna	
NARKOZDAN SO'NG BEMORLARDA XOTIRANI TIKLANISHI.....	584
Karimova Gulchehra Xamidullayevna, Shukurova Nigora Quدراتila qizi	
NUTQIDA KAMCHILIGI BO'LGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN PSIXOKORREKSION ISHLAR TIZIMI	587
S.A.Mamatisayeva	
OPERATSIYADAN SO'NG SEZGI JARAYONLARINING TIKLANISHI.....	590
Karimova Gulchehra Xamidullayevna, Tojiyeva Go'zal Karimjonovna, Ollamova Nargiza Hamdam qizi	
TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA “DIGITAL TWIN” (RAQAMLI EGIZAK) TEXNOLOGIYASI ASOSIDA MODELLASHTIRISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	593
Umarova Navbahor Shokirovna, Gaymnazarov Odiljon Kurbanovich	

BOLALIKDAGI PSIXOLOGIK JAROHLARNING O'SMIR SHAXSIY IDENTIFIKATSIYASI SHAKLLANISHIGA TA'SIRI: RETROSPEKTIV TAHLIL ASOSIDAGI YONDASHUV.....	596
Xudayberganova Roziya Nurniyazovna	
BOLALARDA NARKOZDAN SO'NG SEZGINI YUQORI BO'LISHI	599
Karimova Gulchehra Xamidullayevna, Zakirova Sadoqat Kudaybergenovna, Yangiboyev Zokir Tohir o'g'li	
НЕВРОЗЫ У ДЕТЕЙ: ПРИЧИНЫ И СИМПТОМЫ.....	602
Абдурахимов Дониёр Абдусаидович	
INVESTIGATION OF THE RECOVERY OF COGNITIVE PROCESSES AND MEMORY FUNCTIONS AFTER GENERAL ANESTHESIA THROUGH NEUROPSYCHOLOGICAL AND PHYSIOLOGICAL MEASUREMENTS.....	605
Karimova Gulchexra Khamidullayevna	
ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОПРОВОЖДЕНИЕ И ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ЖИЗНИ СЕМЬИ В УСЛОВИЯХ БОЛЕЗНИ РЕБЁНКА.....	608
Асанова Гузаль Мухарамовна	
NARKOZDAN SO'NG UYQU BUZILISHLARI	612
Karimova Gulchexra Xamidullayevna, Kilichova Gulnoza Bobomurotova, Xalikova Shaxzoda Radjabovna	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДЕТСКОГО АУТИЗМА: ФАКТОРЫ, ПРОЯВЛЕНИЯ, ПРОБЛЕМЫ.....	616
Асрарханова Эътибор Абдувахаб қизи	
БЕССОННИЦА И ПСИХОЛОГИЯ: ВЫЗОВЫ И ЦИФРОВЫЕ РЕШЕНИЯ (с включением проекта «Веб-приложение для людей, страдающих бессонницей»).....	620
Туракулова И. Х., Делеверханов С. А.	
ILK O'SPIRINLARDA STRESSNI KELTIRIB CHIQRUVCHI OMILLAR HAQIDAGI TASAVVURLARNING O'ZIGA XOSLIGI	623
N.Z.Ismoilova	
STRESSGA BARDOSHLILIK – SHAXS RUHIY SALOMATLIGINING ASOSI SIFATIDA	626
Ruzmatova Nigina Shotilla qizi	
O'SMIRLIK DAVRIDA XULQIY OG'ISHLARNI KORREKSIYALASH USULLARI.....	629
To'raboyev Azamat Muxamadullayevich	
SCIENTIFIC APPROACHES TO THE FORMATION OF STRESS RESISTANCE	632
Tuychiyeva Shakhlo Shavkatovna	
TALABALARDA RUHIY SALOMATLIKNI MUSTAHKAMLASHDA STRESSGA BARDOSHLILIK VA EMOTSIONAL INTELLEKTNING ROLI.....	634
Xajiyeva Iroda Adambayevna	
MASS-MEDIANI TA'SIRI OSTIDAGI O'Z JONIGA QASD QILISH: VERTER SINDROMI PSIXOLOGIYASI TAHLILI.....	637
Xudoyberganova Sharofat G'ofurjon qizi	
NERV KASALLIKLARDA BEMORLARDA HISSIY O'ZGARISHLARI.....	641
Xujamova Ruhshona G'olib qizi	
СУИЦИДАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ У ДЕВУШЕК-ПОДРОСТКОВ.....	643
Аскарова Гулрух Оринбасаровна, Абдуллина Аделина Маратовна	
СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ И ТЕХНОЛОГИИ В СУДЕБНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЕ	647
Мухтарова Азиза Эркиновна	
INTROVERT VA EKSTROVERT SHAXSLARNING INGLIZ TILINI O'ZLASHTIRISHDAGI PSIXOLOGIK FARQLARI.....	650
Konratbaeva Ayjamal Bazarbaevna, Ochilova Xurshida Bahromovna	
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TANQIDIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI	652
Konratbaeva Ayjamal Bazarbaevna, Yusupova Xursanoy Fazliddin qizi	
МЕНЕДЖМЕНТ ИММЕРСИВНОЙ ИНКЛЮЗИВНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ	655
Оманова Гулноза Абдиназаровна	

KO'P MILLATLI TA'LIM MUASSASALARIDA YETAKCHILIK USHLUBLARINING ETNOPSIXOLOGIK JIHATLARI	658
Umarova Navbahor Shokirovna, G'ayratova Malohat O'tkir qizi	
TA'LIM TASHKILOTLARIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONIDA BIXEVIORIAL MENEJMENT NAZARIYASINING MOHIYATI.....	660
Umarova Navbahor Shokirovna, Sangirova Nargiza Yuldashevna	

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INKLYUZIVLIK SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHDA RAHBARLIK FAOLIYATINING PSIXOLOGIK VA TASHKILY ASOSLARI

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna

Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta'lim fakulteti dekani,
pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuzivlik siyosatini amalga oshirishda rahbarlik faoliyatining psixologik va tashkiliy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda rahbarlarning inklyuziv qadriyatlarga munosabati, empatik liderlik, jamoada teng imkoniyatlar muhitini yaratishdagi roli hamda boshqaruv jarayonining psixologik mexanizmlari o'rganilgan.

Shuningdek, inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan rahbarlik kompetensiyalari — kommunikativ madaniyat, emotsional intellekt, konfliktni konstruktiv hal etish ko'nikmalari va o'zgarishlarga moslashuvchanlik darajasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, rahbarlik, psixologik muhit, boshqaruv kompetensiyalari, emotsional intellekt, maktabgacha ta'lim, inklyuziv siyosat, empatik liderlik, jamoa, menejment.

Abstract: This article examines the psychological and organizational foundations of leadership activities in implementing inclusive policies within preschool educational institutions. The study explores the attitudes of leaders toward inclusive values, the importance of empathetic leadership, and the role of managers in creating an environment of equal opportunities within the team.

It also analyzes key leadership competencies necessary for the effective realization of inclusive education — communicative culture, emotional intelligence, the ability to resolve conflicts constructively, and adaptability to change.

Key words: inclusive education, leadership, psychological climate, management competencies, emotional intelligence, preschool education, inclusive policy, empathetic leadership, team, management.

Аннотация: В данной статье рассматриваются психологические и организационные основы руководящей деятельности при реализации инклюзивной политики в дошкольных образовательных учреждениях.

В исследовании анализируются отношение руководителей к инклюзивным ценностям, значение эмпатического лидерства и роль управленцев в создании среды равных возможностей в коллективе.

Также раскрываются ключевые управленческие компетенции, необходимые для эффективного внедрения инклюзивного образования — коммуникативная культура, эмоциональный интеллект, умение конструктивно разрешать конфликты и адаптироваться к изменениям.

Ключевые слова: инклюзивное образование, лидерство, психологический климат, управленческие компетенции, эмоциональный интеллект, дошкольное образование, инклюзивная политика, эмпатическое лидерство, коллектив, менеджмент.

KIRISH

Bugungi globallashuv va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan ta'lim siyosati sharoitida inklyuziv ta'lim tizimini samarali boshqarish dolzarb ijtimoiy-psixologik masalaga aylandi.

So'nggi yillarda ta'lim tizimining modernizatsiyasi jarayonida inklyuziv yondashuv insonparvar siyosatning muhim yo'nalishiga aylandi. Inklyuziv ta'lim jamiyatning barcha a'zolarini, jumladan, jismoniy yoki psixologik cheklovlarga ega bolalarni ham teng huquqli ta'lim muhitiga jalb etishga qaratilgan.

Bunday tizimni samarali tashkil etishda rahbarlik faoliyati markaziy o'rin tutadi. Aynan rahbarning psixologik savodxonligi, boshqaruv madaniyati va tashkiliy qarorlarni insonparvarlik tamoyillariga asoslab qabul qilishi inklyuzivlik siyosatining muvaffaqiyatini belgilab beradi.

Maktabgacha ta'lim tizimida bu jarayon yanada murakkab tus oladi, chunki bu davr bola shaxsining dastlabki ijtimoiy va emotsional ko'nikmalari shakllanadigan bosqich hisoblanadi. Shu bois rahbarning vazifasi faqat ma'muriy boshqaruv bilan cheklanmay, balki pedagoglar, tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasida o'zaro ishonch va hamkorlik muhitini yaratishdan iborat.

Bu esa yuqori darajadagi empatiya, ijtimoiy mas'uliyat, hissiy barqarorlik va psixologik moslashuvchanlikni talab etadi.

Inklyuzivlik siyosatini amalda tatbiq etish rahbarning shaxsiy fazilatlarini bilan bevosita bog'liqdir. Rahbar jamoaning har bir a'zosini qadrlay olishi, ijobiy psixologik muhitni shakllantirishi va nizoli holatlarda konstruktiv yondashuvni qo'llay bilishi zarur. U o'z xodimlarining psixologik farovonligi, motivatsiyasi va professional o'sishiga e'tibor qaratgan taqdirdagina inklyuziv muhit barqaror rivojlanadi.

Shunday muhitda farzandlarning ehtiyojlari chuqurroq anglanadi, pedagoglar esa o'zlarini jamoaning muhim bo'lagi sifatida his etadilar.

Zamonaviy ta'lim jarayoni shuni ko'rsatmoqdaki, har qanday innovatsion yondashuvni samarali amalga oshirish uchun rahbarning hissiy intellekti, kommunikativ kompetensiyasi va yetakchilik madaniyati muhim ahamiyatga ega. Inklyuziv muassasada rahbar faqat ma'mur emas, balki jamoani ruhlantiruvchi, ishonch uyg'otuvchi shaxs bo'lishi kerak.

U ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari – tarbiyachi, ota-ona, psixolog va ijtimoiy pedagoglar o'rtasidagi aloqani uyg'unlashtirib, umumiy maqsad sari yo'naltiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuzivlikni boshqarish jarayonida psixologik va tashkiliy omillar o'zaro chambarchas bog'liq. Psixologik omillar rahbarning hissiy sezgirligi, stressga chidamliligi va moslashuvchanligini ifodalasa, tashkiliy omillar – rejalashtirish, motivatsiya tizimi, resurslarni taqsimlash va nazorat mexanizmlarini o'z ichiga oladi.

Bularning uyg'unlashuvi natijasida ta'lim muassasasi haqiqiy inklyuziv qadriyatlarga asoslangan holda faoliyat yuritadi.

Inklyuziv siyosatni hayotga tatbiq etish, avvalo, rahbarning shaxsiy ishonchi va qadriyatlariga bog'liq. U insonparvarlik tamoyillarini faqat rasmiy hujjatlarda emas, balki kundalik boshqaruv madaniyatida, xodimlar bilan munosabatda, pedagogik qarorlarni qabul qilishda aks ettirishi kerak. Shu tariqa, rahbarlik faoliyati inklyuziv ta'lim falsafasining real ifodasiga aylanadi.

Mazkur maqolada aynan shu jarayonning psixologik hamda tashkiliy asoslari tahlil qilinadi. Rahbar shaxsining hissiy intellekti, kommunikativ ko'nikmalari va tashkiliy qarorlar qabul qilishdagi insonparvar yondashuvi inklyuziv muhitni shakllantirishda qanday o'rin tutishi ilmiy asosda yoritiladi.

Shuningdek, inklyuziv rahbarlik modeli, jamoaviy qadriyatlar tizimi va ta'lim muassasasida sog'lom psixologik muhit yaratish tamoyillari haqida ham fikr yuritiladi.

Umuman olganda, maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv siyosatni amalga oshirish rahbarlikning yangi bosqichini talab etadi — bu bosqichda boshqaruv faqat tashkilotchilik emas, balki insoniylik, empatiya va ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'unlashgan bo'lishi zarur. Shu yo'sinda shakllangan rahbarlik madaniyati inklyuziv ta'limning haqiqiy samaradorligini ta'minlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuzivlik siyosatini samarali amalga oshirish bugungi kunda nafaqat ta'lim tizimining, balki butun jamiyatning ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Inklyuziv ta'limni boshqarish jarayonida rahbar shaxsining kasbiy kompetensiyalari, psixologik yetukligi va tashkiliy salohiyati hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Bunday rahbar faqatgina ma'muriy topshiriqlarni nazorat qiluvchi emas, balki jamoaning ruhiy muvozanatini saqlovchi, pedagogik jarayonni ijtimoiy-emotsional muhit bilan uyg'unlashtiruvchi yetakchi sifatida faoliyat yuritadi.

Rahbarning psixologik salohiyati avvalo uning empatiya, kommunikativlik, moslashuvchanlik va stressni boshqarish qobiliyatlarida ifodalanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim muhitida rahbarning hissiy intellekti (emotional intelligence) yuqori bo'lgan taqdirda jamoada hamkorlik, ochiqlik va qo'llab-quvvatlash madaniyati mustahkamlanadi.

Cross, Dobson va Brooks (2024) tomonidan olib borilgan tadqiqotda aynan shu jihat asosiy e'tiborga olinib, maktabgacha ta'lim tizimi rahbarlarining “liderlik kompetensiyasi modeli” ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, samarali rahbar ijtimoiy sezgirlik, o'zgarishlarga moslashuvchanlik va innovatsion yondashuvni uyg'unlashtira olgan shaxsdir [1].

Shuningdek, inklyuziv siyosatni amalga oshirishda rahbarlik faoliyati tashkiliy omillar bilan ham uzviy bog'liqdir. Har bir maktabgacha ta'lim tashkilotida jamoaning tarkibi, moddiy-texnik baza, metodik qo'llanmalar va ota-onalar bilan hamkorlik darajasi o'ziga xos. Shuning uchun rahbarning boshqaruv uslubi faqat standart me'yorlarga tayanmasdan, balki mahalliy kontekst va individual ehtiyojlarga moslashtirilgan bo'lishi zarur.

Janubiy Afrikada olib borilgan tadqiqot (Education Journal, 2021)da shunday xulosa keltirilganki, inklyuziv siyosat muvaffaqiyati rahbarning madaniy sezgirliigi, xodimlarga psixologik yordam berish qobiliyati va ijtimoiy sheriklikni yo'lga qo'yish strategiyalariga bog'liqdir [2].

Psixologik nuqtayi nazardan, inklyuzivlikni boshqarish jarayoni “o'zgarishlarga qarshilik” fenomeni bilan ham to'qnash keladi. Ko'plab pedagoglar va ota-onalar yangi tizimlarga nisbatan ishonchsizlik bildiradilar, bu esa rahbarning kommunikativ strategiyalariga jiddiy e'tibor qaratishni talab etadi.

Bunda “faol tinglash”, “ochiq muloqot” va “emotsional validatsiya” usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Rahbar o'z jamoasida inklyuziv qadriyatlarni singdirishda namunali model sifatida namoyon bo'lishi kerak.

Balikci va Bayrakdar (2024)ning “Early Childhood Administrators' Attitudes Towards Inclusive Education: A Systematic Review” nomli tadqiqotida ko'rsatilishicha, rahbarlarning inklyuziv ta'limga ijobiy munosabati bevosita pedagoglar va psixologlarning inklyuzivlikka tayyorlik darajasiga ta'sir qiladi.

Tahlil natijalariga ko'ra, ijobiy rahbarlik muhiti mavjud bo'lgan tashkilotlarda bolalarning ijtimoiy integratsiya darajasi, shuningdek, nogironligi bo'lgan bolalarning o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshadi [3].

Tashkiliy jihatdan, samarali rahbar inklyuzivlik siyosatini amalga oshirishda bir nechta strategik bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Diagnostik bosqich – tashkilotdagi mavjud inklyuziv salohiyatni tahlil qilish;
2. Rejalashtirish bosqichi – resurslarni taqsimlash, o'qituvchilarni tayyorlash, kommunikatsiya tizimini yo'lga qo'yish;
3. Amaliy bosqich – inklyuziv ta'lim jarayonini tatbiq etish va monitoring qilish;
4. Refleksiv bosqich – natijalarni tahlil qilish, o'zgarishlarga adaptatsiya qilish, jamoaning psixologik barqarorligini saqlash.

Mazkur jarayonlarda rahbar faqat tashkiliy menejer emas, balki psixologik yetakchi sifatida jamoani ruhlantiruvchi kuchga ega bo'lishi kerak. Uning qarorlari hissiy muvozanatni saqlovchi, ijobiy psixologik iqlimni yaratishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Shu sababli, inklyuziv siyosatni muvaffaqiyatli amalga oshirishda rahbarning o'z-o'zini tahlil qila olish, ijtimoiy empatiya va barqaror qaror qabul qilish malakalari markaziy o'rin tutadi.

Umuman olganda, inklyuziv ta'limni boshqarishning psixologik va tashkiliy asoslari bir-biri bilan uzviy bog'liq. Ularning uyg'unligi orqali ta'lim muassasalarida ijtimoiy adolat, insonparvarlik va teng imkoniyatlar tamoyillari real hayotga tatbiq etiladi. Shunday qilib, rahbarlikning mazmuni nafaqat tashkilotni boshqarish, balki insoniy qadriyatlarni amaliyotga aylantirish san'atidir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim tizimida inklyuzivlik siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun rahbarlik faoliyatining psixologik va tashkiliy komponentlari o'zaro muvofiqlashtirilgan bo'lishi zarur.

Rahbarning individual psixologik xususiyatlari – empatiya, barqarorlik, o'zgarishlarga ochiqlik va ijtimoiy sezgirlik – inklyuziv muhitni shakllantirishda asosiy determinant sifatida namoyon bo'ladi.

Cross, Dobson va Brooks (2024) ta'kidlaganidek, rahbarlik kompetensiyalarining yuqori darajada shakllanishi jamoada psixologik xavfsizlik muhitini yaratadi va o'qituvchilarning inklyuzivlikka bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi [4].

Empirik kuzatuvlar asosida aniqlanishicha, rahbarning hissiy intellekti yuqori bo'lgan ta'lim muassasalarida pedagoglar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik sifati ancha yuqori, bolalar o'rtasidagi ijtimoiy integratsiya esa yanada faol kechadi.

Bunday tashkilotlarda rahbarlar konfliktlarni konstruktiv hal qilish, o'qituvchilarni motivatsiyalash va ularning professional o'sishini rag'batlantirish strategiyalarini samarali qo'llaydilar. Bu holat, o'z navbatida, inklyuziv siyosatning ichki barqarorligini ta'minlaydi.

Tashkiliy omillar nuqtayi nazaridan esa, rahbarning boshqaruv uslubi va strategiyasi ta'lim muassasasining inklyuziv imkoniyatlarini kengaytiruvchi yoki aksincha, toraytiruvchi omilga aylanishi mumkin.

Balikci va Bayrakdar (2024) olib borgan tizimli tahlilda shunday xulosa berilganki, rahbarlar inklyuziv qadriyatlarga ega bo'lgan muhitda faoliyat yuritayotgan taqdirda, pedagoglarning nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan munosabati sezilarli darajada ijobiylashadi. Ularning empatik yondashuvi, professional qo'llab-quvvatlovi va o'zaro o'rganish jarayonlari intensivlashadi [5].

Tadqiqot jarayonida aniqlangan muhim jihatlardan biri – inklyuzivlikni boshqarishdagi psixologik to'siqlarning mavjudligidir. Ular asosan ikki shaklda namoyon bo'ladi: birinchisi – o'qituvchilar va ota-onalarning yangi tizimga nisbatan ichki qarshiligi; ikkinchisi – rahbarlarning o'ziga ishonchsizlik hissi.

Shu boisdan rahbarlik tayyorgarligi jarayonida stressni boshqarish, o'z-o'zini refleksiya qilish va emotsional liderlikni rivojlantirish kompetensiyalari alohida o'rgatilishi kerak.

Inklyuzivlik siyosatining tashkiliy jihatdan barqaror amalga oshirilishi uchun rahbarlar tomonidan innovatsion boshqaruv yondashuvlarini qo'llash muhimdir.

Xususan, kollegial boshqaruv, moslashuvchan tashkilot modeli va psixologik iqlimni monitoring qilish tizimi samarali natijalar beradi.

Education Journal (2021) nashrida e'lon qilingan tadqiqotda qayd etilishicha, Janubiy Afrikadagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bunday mexanizmlarni joriy etgan rahbarlar jamoaviy ishonchni oshirish, pedagogik innovatsiyalarni tezroq tatbiq etish va ijtimoiy hamkorlikni kengaytirishga muvaffaq bo'lganlar [6].

Psixologik jihatdan sog'lom jamoa shakllanishi, o'z navbatida, rahbarning kommunikativ mahorati va adolatli qaror qabul qilish madaniyatiga tayanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, samarali rahbarlar xodimlarni faqat ijrochilar sifatida emas, balki hamfikir hamkorlar sifatida ko'radi.

Bu yondashuv jamoada “men” emas, “biz” konsepsiyasini shakllantiradi. Shunday muhitda har bir pedagog o'zining professional o'sishini jamoaviy maqsad bilan uyg'unlashtira oladi.

Natijalar shuningdek, inklyuzivlikni boshqarish tizimida refleksiv tahlil va psixologik treninglarni muntazam o'tkazish samaradorlikni oshirishini ko'rsatdi.

Rahbarlar uchun tashkil etilgan “emotsional liderlik” va “konfliktlarni boshqarish” bo'yicha o'quv dasturlari, o'qituvchilarning inklyuziv qadriyatlarga nisbatan motivatsiyasini oshirgan. Shu asosda inklyuziv muhitda ijtimoiy moslashuv, tolerantlik va o'zaro hurmatning psixologik poydevori mustahkamlanadi.

Natijalar shuni isbotlaydiki, inklyuzivlik siyosatini amalga oshirish jarayonida rahbarlik faoliyati faqat tashkiliy mexanizm emas, balki chuqur psixologik jarayonlar tizimidir. Rahbarning shaxsiy kompetensiyalari, hissiy intellekti va strategik fikrlashi inklyuziv ta'limning sifat ko'rsatkichlarini bevosita belgilaydi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim tizimida inklyuzivlikni rivojlantirish uchun rahbarlarni psixologik tayyorlash, ularni stressga bardoshli va empatik yetakchilar sifatida shakllantirish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tizimida inklyuzivlik siyosatini samarali amalga oshirish rahbarlik faoliyatining psixologik yetukligi, tashkiliy salohiyati va ijtimoiy ong darajasiga bevosita bog'liqdir.

Inklyuziv ta'lim mohiyatan har bir bolaning o'z imkoniyatiga mos tarzda rivojlanish huquqini tan oluvchi demokratik va insonparvar yondashuv bo'lib, uni amalda qo'llash uchun rahbarlarning yuqori refleksivlik, empatiya, kommunikativlik va barqaror motivatsiya kompetensiyalariga ega bo'lishi zarur.

Inklyuzivlik siyosatini boshqarishdagi muvaffaqiyat, birinchi navbatda, rahbarning psixologik tayyorgarlik darajasi bilan belgilanadi. Rahbar o'z jamoasida ijtimoiy adolat, ishonch va hurmat qadriyatlarini ustuvor yo'nalish sifatida shakllantira olsa, bu holat pedagoglarning nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan munosabatida ijobiy siljishlarga olib keladi.

Shu bilan birga, rahbar shaxsining hissiy intellekti, stressga bardoshliligi, o'zgarishlarga ochiqqligi va ijtimoiy sezgirliги inklyuziv muhitda paydo bo'ladigan psixologik to'siqlarni yengishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Tashkiliy jihatdan esa, inklyuzivlikni boshqarish rahbarning strategik qarorlar qabul qilish uslubi, kommunikatsiya tizimini yo'lga qo'yish darajasi hamda jamoaviy hamkorlikni rivojlantirish salohiyatiga bog'liq.

Innovatsion boshqaruv, masalan, kollegial liderlik yoki kooperativ boshqaruv modeli kabi yondashuvlar inklyuziv qadriyatlarni ta'lim muassasasining kundalik hayotiga singdirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, tashkiliy moslashuvchanlik rahbarga pedagogik jarayonni har bir bolaning ehtiyojlariga qarab qayta loyihalash imkonini beradi — bu esa inklyuzivlikning amaliy mazmunini kuchaytiradi.

Tadqiqotda olingan natijalarga ko'ra, inklyuziv ta'lim muhitini shakllantirishda rahbarning psixologik iqlimni nazorat qilish va konfliktlarni boshqarish ko'nikmalari alohida ahamiyat kasb etadi. Emotsional muvozanatga ega, ijobiy kommunikatsiyani rag'batlantiruvchi rahbarlar jamoada o'zaro hurmat, hamkorlik va bag'rikenglik muhitini yaratadi.

Natijada, pedagoglar o'z faoliyatiga nisbatan mas'uliyatliroq yondashadi, bolalarning farovonlik darajasi oshadi va inklyuziv siyosatning samaradorligi sezilarli kuchayadi.

Muhokamalar asosida shuni ta'kidlash joizki, inklyuzivlikni boshqarish nafaqat tashkiliy mexanizm, balki chuqur psixologik tizimdir.

Bu tizimda rahbarning o'z-o'zini anglash darajasi, empatik qobiliyati va ichki motivatsiyasi butun pedagogik muhitga ta'sir qiladi. Shu sababli rahbarlarni tayyorlashda faqat boshqaruv nazariyalarini emas, balki shaxsiy rivojlanish, hissiy intellekt, stressni boshqarish va psixologik barqarorlikka oid treninglarni ham joriy etish zarur.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilarni ajratishimiz mumkin:

- Rahbarlar uchun emotsional liderlik va inklyuziv boshqaruv bo'yicha muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

- Maktabgacha ta'lim tizimida rahbarlarning refleksiv tahlil madaniyatini rivojlantirish;

- O'qituvchilar va rahbarlar o'rtasida mentorlik tizimini kuchaytirish;

- Psixologik iqlimni baholovchi monitoring tizimlarini joriy etish orqali stress manbalarini erta aniqlash.

Ushbu tadqiqotdan kelib chiqadigan xulosa shuki, inklyuziv ta'lim siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun rahbar shunchaki boshqaruvchi emas, balki ijtimoiy o'zgarishlarning psixologik katalizatori sifatida faoliyat yuritishi kerak.

U o'z jamoasida ijobiy psixologik kayfiyatni shakllantirgan holda, har bir bolani qadriyat sifatida ko'rgan taqdirdagina inklyuzivlik falsafasi haqiqiy amaliyotga aylanadi. Shu boisdan, maktabgacha ta'lim rahbarlarini tayyorlashda insonparvar, empatik va strategik fikrlovchi liderlarni shakllantirish — zamonaviy inklyuziv siyosatning asosiy sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Cross, M., Dobson, T., & Brooks, H. (2024). Leadership Competencies in Early Childhood Education: Design and Validation of a Survey Tool. *Australasian Journal of Early Childhood*. <https://www.ovid.com/journals/ajec/fulltext/10.1177/18369391241282679>
2. Education Journal. (2021). Leadership in Implementing Inclusive Education Policy in Early Childhood Education and Care Playrooms in South Africa. *MDPI Education*, 11(12), 815. <https://www.mdpi.com/2227-7102/11/12/815>
3. Balikci, A., & Bayrakdar, E. (2024). Early Childhood Administrators' Attitudes Towards Inclusive Education: A Systematic Review. *MDPI Education*, 15(6), 734. <https://www.mdpi.com/2227-7102/15/6/734>
4. Cross, M., Dobson, T., & Brooks, H. (2024). Leadership Competencies in Early Childhood Education: Design and Validation of a Survey Tool. *Australasian Journal of Early Childhood*. <https://www.ovid.com/journals/ajec/fulltext/10.1177/18369391241282679>
5. Balikci, A., & Bayrakdar, E. (2024). Early Childhood Administrators' Attitudes Towards Inclusive Education: A Systematic Review. *MDPI Education*, 15(6), 734. <https://www.mdpi.com/2227-7102/15/6/734>
6. Education Journal. (2021). Leadership in Implementing Inclusive Education Policy in Early Childhood Education and Care Playrooms in South Africa. *MDPI Education*, 11(12), 815. <https://www.mdpi.com/2227-7102/11/12/815>

